“Dolzarb muammolarni hal etishda kimyo-biologiya sohasining an’anaviy va zamonaviy tadqiqot usullari” mavzusidagi matbuot anjumani o’tkazildi

Ma’lumki, 2020-yilda kimyo va biologiya fanlarini rivojlantirish, ushbu yo’nalishlarda ta’lim sifati va ilm-fan natijadorligini oshirish ustuvor vazifa etib belgilangan edi.

Shu munosabat bilan joriy yil 30-aprel kuni Milliy matbuot markazida o’tgan yilda kimyo-biologiya yo’nalishida Fanlar akademiyasi tomonidan amalga oshirilgan ishlarga bag’ishlangan "Dolzarb muammolarni hal etishda kimyo-biologiya sohasining an’anaviy va zamonaviy tadqiqot usullari" mavzusida matbuot anjumani o’tkazildi.

Unda FA vitse-prezidenti B.Ibragimov, O’simlik moddalari kimyosi instituti direktori Sh.Sagdullayev, Genomika va bioinformatika markazi direktori o’rinbosari Z.Bo’riyev, yetakchi olimlar hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Matbuot anjumanida kimyo-biologiya yo’nalishi ustuvor vazifa etib belgilangan 2020-yilda FA olimlariga yuklatilgan vazifalar va bular doirasida amalga oshirilgan ishlar haqida ma’lumot berildi.

Xususan, fan-ta’lim integratsiyasi, farmasevtika, qishloq xo’jaligi, biotexnologiyalar yo’nalishlaridagi ilmiy-tadqiqotlar, shuningdek, ilmiy-tadqiqotlar natijadorligi oshirishga qaratilgan Mikrobiologiya institutida “Fitovirusologiya” laboratoriyasi, Immunologiya va inson genomikasi instituti huzurida “Biotibbiyot texnologiyalarini muvofiqlashtirish markazi”, O’simlik moddalari kimyosi institutida diagnostikumlarni ishlab chiqarish korxonasi hamda “Tibbiy kimyo va nozik organik sintez” laboratoriyasi tashkil etilganligi haqida ma’lumot berildi.

Shuningdek, FA Genomika va bioinformatika markazida zamonaviy molekulyar biologiya texnologiyalaridan foydalangan holda turli qishloq xo’jaligi ekinlarining yangi navlarini (paxta, kartoshka, bug’doy, makkajo’xori va boshqa) yaratish bo’yicha olib borilayotgan tadqiqotlar haqida ham atroflicha gapirib berildi.

Bundan tashqari, FA olimlari tomonidan yaratilgan biologik namunalardan virus RNKsini ajratib olish uchun to’plami hamda koronavirusga qarshi yaratilgan vaktsina haqida ham alohida to’xtalib o’tildi.